“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati 2023-yildagi korporativ boshqaruv tizimini baholashni o‘tkazish maqsadida professional xizmatlarni taqdim etuvchi mustaqil tashkilotni tanlash bo‘yicha (qayta) tanlov e’lon qiladi

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-sonli Bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv Kodeksining 36-bandiga asosan “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (O‘zRVB) 2023-yildagi korporativ boshqaruv tizimini baholash maqsadida professional xizmatlarni taqdim etuvchi mustaqil tashkilotni tanlash bo‘yicha tanlov e’lon qiladi.

Tanlovda quyidagi tashkilotlar qatnashishlari mumkin:

a) qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari;

b) shtatida korporativ boshqaruvchi yoki qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassisining tegishli sertifikatiga ega bo‘lgan mutaxassisi mavjud auditorlik tashkilotlari;

v) korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazlari;

g) “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi”.

Tanlov ishtirokchilari quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan texnika, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslari va boshqa resurslar mavjudligi;
- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;
- o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
- “buyurtmachi” bilan sud yoki arbitraj muhokamasi mavjud emasligi;
- Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd etilmaganligi.

Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:

- qimmatli qog‘ozlar bozorida 3 (uch) yildan kam bo‘lmagan ish tajribasiga ega bo‘lishi;
- shtat tarkibida amaldagi qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha mutaxassis attestatiga ega bo‘lgan kamida 1 (bir) ta qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha mutaxassis mavjudligi;
- ishtirokchiga nisbatan avval korporativ boshqaruv tizimi baholangan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan salbiy fikrlar mavjud emasligi;
- ishtirokchiga nisbatan ijobiy baho berilgan tavsiya-xatlari (kamida bitta) mavjudligi.

Tanlov takliflari muhrlangan konvertda quyidagi hujjatlarni o‘z ichiga olgan holda taqdim etilishi lozim:

- tanlov ishtirokchisining tanlovda ishtirok etish bo‘yicha baholash xizmatining dastlabki qiymati ko‘rsatilgan taklifi (muhrlangan konvertda taqdim etiladi);
- davlat ro‘yxatidan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi;
- tegishli litsenziyaning nusxasi (mavjud bo‘lganda);
- qimmatli qog‘ozlar bozorining mutaxassisi malaka guvohnomasining va (yoki) korporativ boshqaruvchi malaka guvohnomasining nusxasi;
- tashkilot to‘g‘risida ma’lumot;
- eng yirik mijozlar ro‘yxati.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun talab etiladigan muddat:
Shartnoma asosida oldindan to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, 15 ish kuni ichida.

To‘lov shartlari:
50% - oldindan to‘lov, qolgan 50% - bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangandan so‘ng.

Tanlov hujjatlarini taqdim etishning oxirgi muddati:
2024-yil 18-mart, soat 15:00 (mahalliy vaqt bo‘yicha) gacha.

Belgilangan vaqtdan keyin taqdim etilgan hujjatlar haqiqiy hisoblanmaydi va muhokamaga kiritilmaydi.

Jamiyat uchun jozibador bo‘lgan shartlarni taklif etgan ishtirokchi “O‘zRVBning 2023-yildagi korporativ boshqaruv tizimini baholashni o‘tkazish” bo‘yicha tanlov g‘olibi deb hisoblanadi.

Mazkur tanlov natijalari O‘zRVBning boshqaruv organi (Kuzatuv kengashi)ga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi hamda ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha mustaqil tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

Tanlovda qatnashish uchun takliflar:
“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJning quyidagi manziliga yuboriladi:
100084, O‘zbekiston, Toshkent sh., Sh. Rashidov ko‘chasi, 4-uy.

Aloqa uchun telefon raqamlari: + 998 55 501-33-02 (ichki raqam: 117 – Jamshid Xudoyberdiyev; ichki raqam: 124 – Adile Keshfetdinova)

Elektron manzil: info@uzrvb.uz;

Veb-sayt: www.uzrvb.uz